

## POLISINDETON – BADIY OBRAZ YARATISH FUNKSIYASI SIFATIDA

*Hokimjonova Dilobarxon**Farg‘ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi**Lingvistika- o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikdagi sintaktik figuralardan biri bo‘lmish polisindeton termini haqida so‘z yuritiladi va uning poetik nutqda badiiy obraz yaratish funksiyasi ko‘rib chiqiladi

**Kalit so‘zlar:** Polisindeton, poetik nutq, sintaktik figura, termin, obraz, funksiya.

Til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi bo‘lib, u orqali inson borliqni idrok etadi, baholaydi va munosabat bildiradi. Til tizimida faqat mantiqiy va ratsional mazmun emas, balki emotsional-ta’sirchanlik, badiiylik hamda estetik qadriyatlar ham mujassam bo‘ladi. Ushbu qatlamlar nutqning obrazlilik va ekspressivligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi bunday xususiyatlar turli xil til birliklari, xususan, stilistik figuralar orqali yuzaga chiqadi. Stilistik figuralar nutqning mazmuniy va shakliy jihatdan boyishiga, muallifning subyektiv munosabati va individual uslubini ifodalashga imkon yaratadi. Ana shunday stilistik vositalardan biri polisindeton bo‘lib, u asosan sintaktik sathga mansub hodisa sanaladi. Polisindeton gap tarkibida bog‘lovchilarning ataylab takror qo‘llanishi orqali fikrning ritmikligi, ta’sirchanligi va ifodaviy kuchini oshiradi hamda nutq qurilishida o‘ziga xos stilistik effektni yuzaga keltiradi.

Polisindeton sintaktik figuralar tizimida o‘rganiladigan muhim poetik ifoda vositalaridan biri sanaladi. Ushbu stilistik hodisa, asosan, gap tarkibida bog‘lovchilarning ataylab takror qo‘llanishi orqali fikrning emotsional-ekspressiv tusini kuchaytirishga xizmat qiladi. Polisindeton yordamida nutqda shoshqaloqlik, hayajon, ichki kechinmalar yoki kuchli hissiy holatlar ifodalanadi, shuningdek, nutqning ritmik tuzilishi va ohangdorligi ta’minlanadi. Natijada matnning umumiy ta’sirchanligi ortib, ifodaning badiiy qiymati yanada boyiydi. Polisindeton nafaqat she’riy matnlarda, balki nasriy asarlarda hamda notiqlik san’atida faol qo‘llanilib, adabiy nutqning mazmuniy va shakliy jihatdan chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ushbu stilistik figura fikrni ketma-ket va ta’kidli tarzda bayon etish imkonini yaratib, gapning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, polisindeton so‘zlashuv nutqida ham ortiqcha bog‘lovchilar vositasida o‘ziga xos intonatsion oqimni yuzaga keltiradi hamda tinglovchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur jihatlar polisindetonning stilistik vosita sifatida adabiyotda ham, kundalik nutqda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelayotganini ko‘rsatadi.

Polisindetonning badiiy nutqdagi asosiy funksiyalaridan biri tasviriylik funksiyasi

hisoblanadi. Mazkur funksiya poetik matnda voqea-hodisalar, tabiat manzaralari hamda ruhiy holatlarning obrazli, jonli va rang-barang tarzda ifodalanishiga xizmat qiladi. Polisindeton orqali matn tarkibidagi unsurlar ketma-ket va ta'kidli ravishda sanab o'tiladi, natijada har bir komponent alohida semantik va stilistik ahamiyat kasb etadi. Bu holat badiiy matnda tasvirning aniqligi va aniqlik darajasini oshirib, vizual hamda emotsional ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Polisindeton adabiy tahlil doirasida ko'plab tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan sintaktik-stilistik hodisa hisoblanadi. Shunga qaramay, uning poetik nutqda badiiy obraz yaratishdagi roli va funksional imkoniyatlari hanuzgacha yetarli darajada tizimli va mukammal yoritilmagan. Shu bois mazkur bo'limning asosiy maqsadi polisindetonning poetik nutqda badiiy obraz hosil qilish jarayonidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, uning funksional xususiyatlarini, ritmik hamda kompozitsion imkoniyatlarini izchil tahlil qilishdan iboratdir.

Polisindetonning badiiy matndagi yetakchi xususiyati uning takroriy tabiatida hamda birliklarning tartiblangan va ketma-ket sanalishida namoyon bo'ladi. Ushbu stilistik figura grammatik jihatdan majburiy bo'lmagan, ya'ni fakultativ hodisa sifatida namoyon bo'lib, bu holat uning aynan stilistik maqsadlarda qo'llanilishiga imkon yaratadi. Bog'lovchilarning ataylab ortiqcha va takroriy ishlatilishi matnda tabiiy ritmik oqimni, izchil intonatsion fonni hamda semantik ta'kidni ko'rsatadi.

Polisindetonning poetik nutqdagi badiiy-tasviriy funksiyasi, avvalo, obrazlar va sahnalarni aniq, jonli hamda ta'sirchan tarzda ifodalashda namoyon bo'ladi. Ushbu vosita yordamida shoir tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni yoki xarakterlarni bosqichma-bosqich tasvirlab, ularning har bir unsuriga alohida e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, polisindeton kontrastli tasvirlarni kuchaytirish, dramatik holatni yorqinroq ochib berish imkonini ham beradi. Masalan, har bir element oldidan bog'lovchining takror qo'llanishi ritmni kuchaytirib, vizual va hissiy ta'sirni oshiradi hamda o'quvchi diqqatini tasvir markaziga jamlaydi.

Quyida yozuvchilar tomonidan bitilgan poetik asarlarning badiiy obraz yaratishdagi xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Masalan:

*Moskvani sen bilmaysan, qonxo'r yov,*

*Moskvada senga yolg'iz o'lim bor.*

*Chuqurlarda, g'orliklarda chiriysan,*

*Qabrga ham, tobutga ham bo'lib zor.*

(Hamid olimjon "moskvani men bilaman")

"Qabrga ham, tobutga ham bo'lib zor" ushbu misrada "ham ... ham" bog'lovchilari orqali polisindeton hodisasi yuzaga kelgan. Mazkur misrada "ham ... ham" teng bog'lovchilari ikki bir xil semantik maydonga mansub birlik – qabr va tobutni o'zaro bog'laydi. Bunda bog'lovchining oddiy birlashtiruvchi vazifasi ikkinchi

planga o'tib, badiiy obraz yaratish funksiyasi yetakchi bo'ladi. Polisindeton vositasida: o'lim tushunchasi ikki bosqichda (qabr va tobut) ifodalanadi; semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan leksemalar takror bog'lovchi orqali kuchaytiriladi; o'lim muqarrarligi va qahramon taqdirining fojiaivyligi emotsional jihatdan zichlashtiriladi. Agar misra "qabrga, tobutga bo'lib zor" shaklida berilganda, obraz neytral va kamroq ta'sirchan bo'lar edi. Aynan "ham ... ham" polisindetik qurilmasi o'limga daxldor har bir detalni alohida urg'ulab, ularning har birini psixologik bosim nuqtasiga aylantiradi.

Demak, "qabrga ham, tobutga ham" birikmasida qo'llangan "ham ... ham" bog'lovchilari polisindetonning poetik nutqda: badiiy obraz yaratish, emotsional ta'sirni kuchaytirish, fojiaiviy semantikani qat'iylashtirish kabi funksiyalarini to'laonli namoyon etadi. Bu holat polisindetonning poetik nutqdagi polifunksionalligini yaqqol ko'rsatadi.

*Lekin seni aslo tirik qo'ymaymiz.*

*Lekin seni qo'ymaymiz bu Vatanga,*

*Uzoq-yaqin, ona-bola, yigit-chol,*

*Hammamiz ham kirishdik qonli jangga*

(Hamid olimjon "moskvani men bilaman")

*Lekin seni aslo tirik qo'ymaymiz.*

*Lekin seni qo'ymaymiz bu Vatanga,*

misralar boshida "lekin" bog'lovchisining ketma-ket takrorlanishi kuzatiladi. Ushbu holat poetik nutqda polisindeton va anafora kesishgan nuqta sifatida namoyon bo'ladi. Bog'lovchining takror qo'llanishi grammatik zaruratdan emas, balki stilistik maqsaddan kelib chiqqan bo'lib, u qat'iyat va murosasizlik obrazini shakllantiradi. "Lekin" zidlov bog'lovchisi bu yerda avvalgi ehtimoliy holatlarni inkor etib, lirik subyektning keskin va qaytarilmas pozitsiyasini ta'kidlaydi. Badiiy obraz yaratish nuqtayi nazaridan, "lekin ... lekin" takrori: fikrni emotsional va semantik jihatdan kuchaytiradi; jangovar ruh va irodaviy keskinlikni obraz darajasiga ko'taradi; poetik nutqda qat'iy qarshilik va yakdil ijtimoiy irodani ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдупаттоев. М. Т. «Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси» монография. «Classic» Фарғона - 2021 й.
2. Казарин Ю.В. Поэтический текст как система. Издательство Уральского университета. Екатеринбург-2011,
3. ДжубаеваФ.И. Гармония поэтического текста А.С. Пушкина. Ставрополь — 2008,